

## AN'ANAVIY ASHULA IJROCHILIGI XUSUSIDA

**Boboyeva Iroda Sobir qizi**

**Qumriniso Emin qizi**

**O'taganova Azizabonu Abdurashid qizi**

*Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o'qituvchilari, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada musiqiy merosimiz hisoblangan mumtoz qo'shiqlar tarixi, ijrochiligi va ravnaqi, uztroz-shogird an'analar xususida fikr yuritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *Mumtoz musiqa, maqom, uztroz-shogird an'anasi, xofiz, ijrochi, katta ashula.*

O'zbek xalq o'zining boy musiqa me'rosiga ega. Bu merosimizdan joy olgan musiqamizning nodir namunalari asrlar osha ijro etilib, avloddan-avlodga o'tib, sayqallanib bizgacha etib kelgan.

Dunyodagi barcha xalqlar kabi o'zbek xalqi ham o'zining o'ziga xos milliy qadriyatları va shu bilan birgalikda o'tmish tarixi davomida vujudga kelgan, shakllanib rivojlangan ma'naviy, musiqiy va adabiy merosiga egadir. O'zbek musiqa merosining har tomonlama mukammalligi va ma'naviy boyligi barchaga ayondir. Ma'lumki, har qanday milliy meros davrlar osha avlodlardan - avlodlarga o'tib kelgan. Bu albatta og'zaki tarzda asrlar osha xalqimizni ma'naviyati sifatida amaliyot rivojiga xizmat qilib kelmoqda. Milliy qadriyatlar zamon talabi va millat talabi taqozo etgan urf, odat, mehnat va hayot jarayoni sekin-asta zamonga moslanib, an'anaga aylanib boraveradi. Milliy musiqa merosimizning shakllanish jarayonida xalq an'analar muhim ahamiyat kasb etgan. Xusan, mavjud an'analar bir-birini to'ldiruvchi, alohida o'ziga xoslik xususiyati va sifatiga ega bo'lib kelgan.

Mumtoz musiqamiz ijrochiligi va ravnaqiga nazar solar ekanmiz, biz buyuk madaniyat sohiblari avlodni ekanligimizdan faxrlanamiz. Albatta, yosh avlod vakillari o'tmishda yaratilgan musiqiy merosimizni o'qib, ardoqlab, ijro etib, idrok qilib o'zlashtirsalar, zamonaga munosib avlod bo'lib etishadilar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach qadimiy va navqiron musiqiy merosimizga bo'lgan munosabat, ularni ta'lim tizimiga joriy qilishga e'tibor yanada kuchaydi. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan madaniyat maktablarida bu an'analar asosida o'qitish uslubilarining yo'lga qo'yilishi yosh avlod kamoloti yo'lida qilingan asosiy vazifalardandir.

Hozirgi kunda yoshlari orasida xalq ashulalariga, maqomlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish yildan-yilga ko'payib bormoqda. An'anaviy ijrochilik yo'nalishidagi kafedralalarining asosiy vazifalaridan biri – xalq ashulalari va qo'shiqlarini ustozdan shogirdga og'zaki an'ana tarzida (lekin, yozma manbalarga ham asoslanib) musiqiy namunalar asosida o'rgatishdan iborat.

An'anaviy xonandalikni kasb etish niyatida bo'lgan har bir o'quvchi albatta ustozini etagini ushlab, ustozdan ijrochilik, xonandalik sirlarini o'zlashtirishga harakat qiladi. Albatta

bu amaliyot o‘zining qonun-qoidalariga ega bo‘lganligini alohida qayd etishimiz lozim. Chunki, azaldan musiqiy qobiliyat, ovoz imkoniyati va san’atga ishtiyogi bo‘limgan insonlar bu kasbga murojaat etishmagan. Qobiliyati borlar esa o‘z ustoziga mehr qo‘yib, sohasining nozik tomonlarini his qilib, kasb o‘rganishga harakat qilib kelgan. Xonandalikning eng muhim xislatlaridan biri ham shudir.

Albatta, mutaxassis o‘qituvchining talabalarga namuna tarzida aytgan jonli ijrosi muhim ahamiyat kasb etadi. SHu nuqtai nazardan mutaxassislik o‘qituvchilari an‘anaviy ashula ijrochiligidagi mavjud bo‘lgan barcha milliy bezaklarni ovozda ko‘rsata olishi va uni talabalarga singdira olishi muhim omillardan biri sanaladi. Masalan, titratma, qochirim, nola, zangula kabi atamalar bilan mashhur bo‘lgan milliy ijrochiligimiz bezaklari shular jumlasidan bo‘lib, dars jarayonida mohirlik bilan, har birini o‘z xarakteri doirasida ifoda etish ko‘zda tutiladi.

An‘anaviy ashula ijrochiligi sabog‘ini avvalo oddiy usullarda iじro etiladigan xalq yoki bastakorlar ijodlariga mansub asarlardan boshlash maqsadga muvofiq. Bizning milliy an‘anaviy ijrochiligmizda savtxonlar, talqincha aytadiganlar, mo‘g‘ulcha aytadiganlar, katta ashulachilar iじro uslub jihatdan bir-biridan ajralib turganlar. Bu yo‘llarni rivojlantirish uchun, avvalo talabaning ovozini to‘g‘ri ajrata bilish darkor. Bu ham ma‘lum muddatdan so‘ng amalga oshiriladi, chunki xonandalik amaliyoti bolalar yoshidan kelib chiqib turli xususiyatlarga ega. Uning ustiga ovoz o‘zgarishi jarayoni kechadi. U paytda xonandaning ovoziga kuch berish hamda noto‘g‘ri nafas yo‘lini o‘rgatish aslo mumkin emas.

Ovozni xonanda 17-19 yoshdan o‘tganidan so‘nggina ohistalik bilan yo‘lga qo‘yish lozimdir. Ovoz yillar davomida xonandaning imkoniyat darajasida o‘z-o‘zidan, ya’ni ashula o‘rganish jarayonida asta-sekin shakllanib, o‘z yo‘lini, pardasini topa boradi. An‘anaviy ijrochilikda, nola qochirimlar, nim pardalar ustida juda ko‘p yillar ishlash mobaynida haqiqiy o‘zbekona ovoz yuzaga keladi. Ustozlarning: – «bitta hofiz, xonanda 15-20 yilda etuk ashulachi bo‘lib etishadi» – deb aytgan purma’no so‘zlari zamirida katta mehnat yotadi.

Xonandalik amaliyotida o‘z xususiyatlari doirasida asosan yigitlar – erkaklar ovozlari tomonidan iじro etilib kelingan san’at durdonalari bor. Bu Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lgan janr – katta ashuladir. Bu ashulachilik yo‘nalishi juda murakkab hisoblanadi. Uni o‘zlashtirish jarayoni ham maxsus maktabni o‘tash, ya’ni tayyorgarlikni talab qiladi. Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari doirasida katta ashula to‘g‘risida, janr xususiyatlari haqida va iじro uslublarni oz-ozdan tushuntirib, o‘quvchi-talabalarga singdirib borish bo‘lajak xonandalarni tarbiyalashdagi eng muhim omillardan biri sanaladi. Avvalo shu yo‘nalishga moyil, iqtidori, ovozi bo‘ladigan va unga qiziqqan o‘quvchilarni tanlab olib, bunga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Katta ashulani o‘rgatish esa, albatta tajribali ovoz imkoniyati keng bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarga o‘rgatilsa, ayni muddao bo‘ladi. Xonandani ijroda zukkolikka yo‘naltiruvchi omillardan yana biri – jo‘rnavozlik amalidir. Jo‘rnavozlikni yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarga o‘rgatish uchun, avvalo ovozi bir-biriga tushadigan yigit qizlarni juft-juft qilib aytishga jalb

qilib borish lozim. SHunday qilinsa, o'quvchilar bir-birining ijrosini to'ldirib boradi. Har bir sinf uchun imkoniyati doirasida tuzilgan dastur asosida musiqiy asarlar o'rgatilishi maqsadga muvofiqdir.

An'anaviy musiqaning yirik shakli, xalqimizning ma'naviy dunyosini, hayotiy kechinmalarini ohanglarda aks etib kelgan maqomlarimizdir. Maqomlar bizning yurtimizda o'ziga xos vohaviy ahamiyatga ega bo'lgan uch namunasi mavjuddir. Ular musiqa amaliyotida SHashmaqom-Buxoro maqomlari, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari deb yuritiladi.

Azaldan ana'ana tarzida bizgacha etib kelgan va davr taqozosi bilan zamonaviy rivoj topib kelayotgan xalq ashulalarini yoshlarimizga o'rganish hozirgi kunda har doimgidan ham ahamiyatlidir. CHunki, hozirgi umumbashariyat madaniyatlarining o'zaro ta'siri davrida milliy an'analarni saqlash, avaylash va ijodiyotni shunga asoslash juda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yo'Ichiyeva M. an'naviy yakka xonandalik -T, 2018
2. Bo'riyeva K. Ansambl sinfi. T. 2018
3. Karimova M. An'anaviy yakka xonandalik.T. 2018
4. Курбанова М. Ш., Курбанов Ш. К. Стресс и дистресс в музыке //Культура, наука, образование: проблемы и перспективы. – 2017. – С. 230-233.
5. Мурадов М. К., Кадирова К. Использование национального музыкального наследия в формировании профессиональных навыков у будущих учителей музыки //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – 2016. – №. 2. – С. 44-45.